

## MEDIASAVODXONLIKNING YOSH AVLOD MA'NAVİYATIGA TA'SIRI

Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova

*Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari bo'yica falsafa doktori (PhD)*

Pozilov Hamidjon Ikromjon o'g'li

*Qo'qon universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi IV-bosqich talabasi*

Isoqulova Zamira Bahronovna

*Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi yo'nalishi IV-bosqich talabasi*

*Tamaddunning eng muhim vazifasi insonni fikrlashga o'rgatishdir<sup>24</sup>.*

*Tomas Edison*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yoshlar ma'naviyatida mediasavodxonlikning o'rni, turli ta'sirlarga ega axborot xurujlaridan ularni himoyalash, ijtimoiy tarmoqlardan kelayotgan ma'lumotlarni saralay olish ko'nikmalarini shakllantirish, qolaversa, ta'lim sohasida mediavositalaridan unumli foydalanish haqida atroflicha fikr yuritilgan. Internet orqali uyushtirilayotgan axborot xurujlarining yoshlar ongiga ta'sirini anglagan holda, zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalaridan ko'proq xavfsiz va ijobiy maqsadlarda foydalanish yo'llarini topishimiz maqsadga muvofiqdir. Ana shunday samarali yo'llardan biri - ta'lim sohasini media texnologiyalari bilan yanada takomillashtirish zarurligi haqida xulosalar mavjud. Zero, «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» ekanligini unutmashimiz, doimo sergak turishimiz lozimligini anglatadi.*

**Kalit so'zlar:** *axborot xavfsizligi, axborot asri, mediata'lim, mediasavodxonlik, multimediali dars, ma'naviy-ma'rifiy yuksalish, videorolik, mediamadaniyat, internet, fuqarolik pozitsiyasi, integratsiya, intellekt.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается роль медиаграмотности в духовности молодежи, защите ее от информационных атак различного воздействия, формировании умений сортировать информацию, поступающую из социальных сетей, а также эффективном использовании медиа в сфере образования. Обсуждается. Понимая влияние информационных атак, организованных через Интернет, на сознание молодежи, целесообразно найти способы использования современных коммуникационных технологий в более безопасных и позитивных целях. Делаются выводы о необходимости дальнейшего совершенствования сферы образования с помощью медиатехнологий, одного из таких эффективных путей. Ведь это означает, что мы не должны забывать, что «высокая духовность - непобедимая сила» и всегда должны быть бдительны.*

**Annotation:** *This article examines the role of media literacy in the spirituality of young people, protecting them from information attacks of various influences, developing the ability*

<sup>24</sup><https://infourok.ru/ispolzovanie-form-mediaobrazovaniya-v-uchebnovospitatelnom-processe-mladshih-shkolnikov-3260157.html>

to sort information coming from social networks, as well as the effective use of media in education. is being discussed. Understanding the impact of information attacks organized via the Internet on the consciousness of young people, it is advisable to find ways to use modern communication technologies for safer and more positive purposes. Conclusions are drawn about the need to further improve the education sector with the help of media technologies, one of such effective ways. After all, this means that we must not forget that "high spirituality is an invincible force" and must always be vigilant.

**Ключевые слова:** информационная безопасность, информационный век, медиаобразование, медиаграмотность, мультимедийный урок, духовно-образовательный рост, видео, медиакультура, Интернет, гражданская позиция, интеграция, интеллект.

**Key words:** information security, information age, media education, media literacy, multimedia lesson, spiritual and educational growth, video, media culture, Internet, citizenship, integration, intelligence.

Axborotlashgan jamiyat tushunchasini birinchi bo'lib fanga Tokio texnologik universitetining professori Y.Xayashi kiritgan. Uning fikricha, moddiy mahsulot emas, axborotlashuv mahsuloti jamiyatning shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi kuchiga aylanadi.

Jamiyatni axborotlashtirish jarayoni bir-biri bilan bog'liq bo'lgan uch qismdan tarkib topadi:

mediatizatsiya (lot.mediativus - vositachi) - axborot to'plash, saqlash va tarqatish vositalarini takomillashtirish jarayoni;

kompyuterlashtirish - axborot izlash va unga ishlov berish vositalarini takomillashtirish jarayoni;

intellektualizatsiya - axborot yaratish va uni idrok etish qobiliyatini rivojlantirish, ya'ni jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, shu jumladan, sun'iy intellektdan foydalanish jarayoni

Axborot asri davrida yoshlarga yopirilib kelayotgan «notoza va noxolis» axborotlarning oldini olish, sara ma'lumotlarni topib foydalanishlari, xususan, nosog'lom axborotlardan himoyalana olishlari, kommunikatsiya vositalaridan to'g'ri foydalana bilishlari uchun bilim va tajriba kerak bo'ladi. Internet madaniyatini avvalo kattalar, ota-onalar, kerak bo'lsa, pedagoglar o'zlaridan boshlasalar, yana ham yaxshi kutilgan natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Aynan mana shu borada bolalar kattalarning, ayniqsa, ota-onalar va pedagoglarning ma'naviy-ruhiy ko'magiga muhtoj. Shuningdek, mutaxassislar tomonidan o'sib kelayotgan yosh avlodning mediasavodxonligi va Internetdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish, Internetning milliy segmentini rivojlantirish yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqish va ijroga yo'naltirish vaqti keldi. Darhaqiqat, axborot makonida tahdidlar bor ekan, Milliy axborot makonimizga chegara qo'yib bo'lmaydi. Shunday ekan, yoshlarga sog'lom axborot muhitini yaratib, ular ma'naviy olamining daxlsizligini asrash asosiy vazifalarimizdan biridir.

Asrimizda internet jadal sur'atlarda rivojlanib, imkoniyatlari tobora ortib bormoqda. Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, «Axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o'z vaqtida va munosib qarshilik ko'rsatish» muhimdir.

Mafkura qamrovi yadro poligonlaridan kuchli va keng bo'lgan vaziyatda ommaviy axborot vositalari manipulyatsiya, targ'ibotning eng ta'sirchan vositasiga, eng xatarli qurolga aylandi, desak adashmagan bo'lamiz. Zero, axborot havodan ham zaruriy, yorug'likdanda tezroq tarqayotgan zamonda yashayapmiz.

Shu bilan birga, bugun biz yaxlit axborot makonidan ayro taraqqiy eta olmaymiz. «Axborot asrida» yaratilgan naqlnamo bir fikrda, «axborot sust aylangan jamiyatda tafakkurlar ham sust ishlar emish». Shunday jarayonda, axborotdan bahramandlik, axborotdan to'g'ri foydalanish, to'g'rini noto'g'ridan ajrata olish nafaqat har bir fuqarodan talab qilinmoqda, balki axborotlashgan jamiyatda axborot qabul qilish, unga ishlov berish va tarqatish, matn yaratish imkoniyatiga ega bo'lgan har bir insonga mana shunday bilimlar zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Zero, madaniy-ma'rifiy ishlarning keng targ'iboti, ma'naviyatimiz taraqqiyotini ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilish qiyin.

«2022 - 2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11-may 2022-yildagi PF-134-sonli Farmonida Xalq ta'limi vazirligiga multimedia ilovalarini ishlab chiqish talabi qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra maxsus elektron tizimlar (S-testing, Onlinedu, Raqamli darsliklar va boshqalar) orqali multimedialar berib borilishi aytib o'tilgan.

2022-yil yakuniga qadar yangi avlod darsliklari uchun 10 ta mobil elektron resurs va 100 ta multimedia mahsulotlarini yaratish ko'zda tutilgan. Mutaxassislar tomonidan tayyorlangan elektron resurslar o'quvchilarning bilimlarini to'ldirishga xizmat qiladi.

Mavzular yuzasidan shakllantirilgan multimedia mahsulotlari, o'qituvchiga ko'makchi, ota-onalarga yo'l ko'rsatuvchi, o'quvchiga esa bilimlarni mukammal o'zlashtirish imkonini beradi. Multimedialar orqali o'quvchilar o'zlariga mediata'lim beradilar.

Boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Shu sababdan boshlang'ich sinf darslarini o'rganishda rivojlantiruvchi muammoli hamda pedagogik texnologiyalarning asosiy jihatlarini o'zida ifodalovchi «Multimedia dars», «Ko'rgazmali dars», «Seminar dars» kabilarni qo'llash tavsiya etiladi.

«Multimediali darslar»dan foydalanish boshlang'ich ta'lim dars jarayonida sifat va samaradorlikni oshirish imkonini beradi<sup>25</sup>.

Erkin, ochiq ommaviy axborot vositalari demokratik jamiyat uchun zarurdir. Mediata'lim kelajak avlodlar nafaqat ko'rganlari va eshitganlari bilan shakllanmasliklarini, balki o'zlari uchun ham o'ylashlarini ta'minlaydi.

O'quvchilarga media manbalaridan to'plangan ma'lumotlarni qanday qilib samarali saralash, tanlash, tartibga solish, saqlash va ulardan o'z ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirishda foydalanishni o'rgatish judayam muhim jarayondir.

O'quvchilaringizga ommaviy axborot vositalarining aqlli va rostgo'y ijodkori bo'lishga o'rgating va bu nima uchun muhimligini tushuntiring. Agar biror narsani anglatmasa, ommaga ortiqcha foydasiz, chalg'ituvchi ma'lumot kerak emas<sup>26</sup>.

<sup>25</sup> Science and Education" Scientific Journal / May-2020

<sup>26</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mediasavodxonlik>

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda axborot xizmatlari tizimini takomillashtirish borasida muhim qadamlar qo‘yildi. Internet tufayli yangiliklar yorug‘lik tezligida butun dunyo bo‘ylab sayohat qilishi, yolg‘on, fitna nazariyalari, noto‘g‘ri ma‘lumotlar ham shunday bo‘lishi mumkin. Internetda yolg‘on ham juda tez tarqaydi va ko‘pchilikka mislsiz moddiy yoki ma‘naviy zararlar yetkazishi mumkin. Mediasavodxonlik odamlarga tanqidiy fikrlovchi va ijodkor, samarali muloqotchi va faol fuqarolar bo‘lish imkonini beradi.

Bolalarning aksariyati ommaviy axborot vositalaridan o‘z-o‘zini o‘qitib, ma‘naviy yuksalish uchun emas, balki doimiy o‘yin-kulgi uchun foydalanadi. Mavjud ommaviy axborot vositalarining katta miqdori ko‘pincha bolalar uchun mo‘ljallanmagan. Bolalarning tanqidiy ongi va ularning taqlid qilish qobiliyati faqat bolaning ruhiyatiga zarar yetkazadi, yuqori axloqiy shaxsni rivojlantirish imkoniyatini istisno qiladi. Ushbu vaziyat bilan bog‘liq holda, mediata‘lim - media xabardorligini, media savodxonligini va media kompetensiyasini shakllantirish jarayoniga ehtiyoj paydo bo‘ladi.

Mediata‘lim elementlarini tarbiya, o‘qish, musiqa, rasm chizish va boshqa fanlarga integratsiya qilish yaxshi samara beradi.

Mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun L.M. Bajenovanning o‘qituvchi uchun «Maktab o‘quvchilarining media ta‘limi» 1-4-sinflar uchun yozilgan o‘quv qo‘llanmasidan foydalanish mumkin. O‘quvchilarning media-mahsulotlar qanday yaratilganligi va bolalarning ijodiy faoliyati orqali qanday ta‘sir ko‘rsatishi bilan tanishish va xabardor qilish ularda faol qiziqish uyg‘otadi.

Boshlang‘ich sinf darslariga media ta‘lim elementlarini integratsiyalash juda ham muhim. Biror mavzu doirasida ma‘naviy teledastur, multfilm, klip, kino yoki rolklardan foydalanish o‘quvchining turli kompetensiyalarini, axloqiy tarbiyasini yanada rivojlantirib, fanlarni o‘zlashtirishiga ijobiy ta‘sir qiladi.

Har qanday bola vizual ma‘lumotlarga e‘tiborsiz bo‘lmaydi. Agar videorolik yoki film, hikoya yuzasidan tezkor savollar bilan ko‘proq murojaat qilsangiz, ko‘rayotgan, eshitayotgan, o‘qiyotgan ma‘lumotiga yanada diqqatliroq bo‘lganining guvohi bo‘lamiz. Bu bolalar media madaniyatini rivojlantirish bugungi kunda qanchalik dolzarb ekanligi haqida o‘ylashga asos bo‘ladigan yaxshi misoldir.

Demak, zamonaviy animatsion va badiiy filmlar bolalardan ko‘rgan narsalarini sinchiklab kuzatish va chuqurroq tushunishni talab qiladi. Shuning uchun muallifning maqsadlarini tushunish, mediamahsulot sifatini tanqidiy baholash va uni ongli ravishda tanlashni o‘rgatish kerak.

An‘anaviy tarzda mediasavodxonlik shaxsning ma‘naviy-ma‘rifiy asarlarni tahlil eta olish va sifatli matnlarni yaratishidan iborat bo‘lgan bo‘lsa, bugunga kelib mediasavodxonlik - axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir. Mediasavodxon inson o‘ziga bu axborotni kim va nima maqsadda yaratgan? Ushbu xabar men uchun zarurmi? degan savolni bera olishi va to‘g‘ri xulosa chiqarishi, unga nisbatan tanqidiy yondoshishi lozim<sup>27</sup>

<sup>27</sup> <https://uzhurriyat.uz/2016/04/05/mediasavodxonlik-va-u-nima-uchun-kerak/>

Ayni paytda mediata'lim asoslarini har bir ta'lim muassasi o'quv dasturiga kiritish, bolalarga maktabgacha, maktab ta'lim jarayonida uning asoslarini interaktiv, turli o'yinlar shaklida tushuntirish, o'sib kelayotgan avlod tomonidan shiddatli axborot oqimida ma'naviy yuksalishiga mosini tanlash va unga tanqidiy yondashgan holda baholay olish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida yoshlarning kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasini yanada mustahkamlanishiga, jahonda yuz berayotgan voqea-hodisalarni xolis baholab, to'g'ri qaror qabul qila olishiga, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllanishiga asos bo'ladi<sup>28</sup>.

XXI asrning birinchi o'n yilligi uchun YUNESKO va IFLA mediasavodxonlik va axborot savodxonligi integratsiyasi konsepsiyasini tashkil etuvchi yangi tashabbuslarni belgilab berdi<sup>29</sup>.

O'zbekiston ta'lim tizimiga media savodxonlikni joriy etish, boshlang'ich sinflardan tortib, to oliy ta'limgacha «Mediasavodxonlik», «Mediamadaniyat», «Mediapedagogika» nomli darajama-daraja uzviy darslik-majmualar yaratish juda ham muhim masala hisoblanadi. Biz hammamiz media olamida yashaymiz va har kuni media savodxonlik muammolariga duch kelamiz. Yoshlarga bunday qiyin sharoitda o'zini tutish qoidalari va o'z-o'zini himoya eta olishni o'rgatish judayam muhimdir<sup>30</sup>.

Mutaxassislar fikricha, mediata'lim o'quvchini mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini yanada rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Ta'lim jarayonida mediata'lim qanchalik mukammal bo'lsa, u yosh avlod ma'naviyati, dunyoqarashi, intellektual salohiyatining shunchalik rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mediata'lim barcha ta'lim sohasini sifat jihatdan yanada yuqoriroq pag'ona ko'tarishga, axborot madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Ya'ni, o'quvchiga o'quv jarayonida nazariy bilim berish bilan materiallarni yuqori darajadagi zamoniy texnika vositasida namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ta'bir joiz bo'lsa, ilg'or usullar orqali o'qitish o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi. Ular dars jarayonida o'sha mavzularni puxta o'zlashtirishlariga xizmat qiladi<sup>31</sup>.

Pedagog olimlar mediata'lim o'quvchilarga beriladigan dars, bilim, ma'lumotning tez, tushunarli va yodda qolarli bo'lishini ta'minlovchi ta'lim usuli ekanini e'tirof etganlar. O'quvchi o'qituvchining og'zaki ma'ruzasidan ko'ra, ko'rgazmali vositalardan foydalanib, tushuntirishidan ko'proq ta'sirlanar ekan. Ana shunda ular yetkazilayotgan mavzuni ko'proq yodida saqlab qoladi. O'quvchilarda bunday darslarga nisbatan qiziqish yuqori darajada bo'ladi. Demak, deyarli barcha fanlarni o'qitishda bunday ilg'or usuldan foydalanish foydadan xoli bo'lmaydi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, «Bugungi kunda faqat yuksak ma'naviyatli, zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan va professional tayyorgarlikka ega bo'lgan yoshlarga sifatli, jadal va innovatsion taraqqiyotning eng muhim sharti va garovi bo'la olishi, aynan ular mamlakatning buyuk kelajagini ta'minlashi mumkinligiga kinnidir ishontirish yoki buni isbotlab berishning hojati yo'q».

<sup>28</sup> <https://uzhurriyat.uz/2016/04/05/mediasavodxonlik-va-u-nima-uchun-kerak/>

<sup>29</sup> <https://fayllar.org/maruza-mashgulotlari-1-mavzu-mediasavodxonlik-va-axborot-madan.html>

<sup>30</sup> <http://www.marifat.uz/marifati/ruknlar/umumii-urta-talim/Media-va-axborot-savodxonligi.htm>

<sup>31</sup> <http://nauka.uz>

So‘ngi yillarda axborot texnologiyalaridan ba‘zi yovuz kuchlar g‘arazli maqsadlarda foydalanayotganlaridan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Ular o‘z sa‘y-harakatlari bilan kishilarning tinch-farovon hayotiga raxna solayotganlari tashvishli holdir. Internet orqali uyushtirilayotgan axborot xurujlari yoshlar ongini zaharlashi ularning kelajagiga bolta urishdan boshqa narsa emas. Shunday sharoitda biz bu zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalaridan ko‘proq ijobiy maqsadlarda foydalanish yo‘llarini topishimiz maqsadga muvofiqdir. Ana shunday samarali yo‘llardan biri - ta‘lim sohasini media texnologiyalari bilan yanada takomillashtirishdir. Demak, mediata‘lim o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish bilan bir qatorda ularni turli mafkuraviy tajovuzlardan asrashda ham muhim o‘rin tutadi. Zero, «Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuch» ekanligini unutmasligimiz, doimo sergak turishimiz lozimligini anglatadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. -T.:O‘zbekiston, 2019.
2. Y.Mamatova, S.Sulaymonova. O‘zbekiston mediata‘lim taraqqiyot yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. Extremum-press, 2015-94 b.
3. A.B. Федоров. Медиаобразования и медиаграмотность. Учебное пособие. М. 2018 г
4. Gaynazarova, G.A. (2023). OLIY TA‘LIM TIZIMIDA TALABALAR INDIVIDUAL TA‘LIMINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI. Лучшие интеллектуальные исследования, 8(1), 60-64.
5. Гайназарова Г.А. (2023). ИНДИВИДУАЛ ТАЪЛИМ-ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ МУҲИМ ВОСИТАСИ СИФАТИДА. Лучшие интеллектуальные исследования, 8(1), 36-40.
6. G.A Gaynazarova - CHARACTERISTICS OF CHILD VIOLENCE AND ITS NEGATIVE CONSEQUENCES Vol. 8 No. 1 (2023): ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ | ЧАСТЬ-8 | ТОМ-1
7. G.G Abdullayevna IMPORTANCE OF PICTURES BASED ON FAIRY TALES IN SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN - Academia Science Repository, 4(6), 289-292. Retrieved from Issue Vol. 4 No. 6 (2023): wos
8. DEVELOP SOCIAL ACTIVISM SKILLS IN HIGHER EDUCATION STUDENTS B.M Kamaldinovna, G.G Abdullayevna European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 76-78. - 2022
9. G.A.Gaynazarova (2022). IJTIMOIIY MOSLASHUV VA UNING PEDAGOGIK OMILLARI (QIZLAR MISOLIDA). Science and innovation, 1 (B8), 2160-2164. doi: 10.5281/zenodo.7444985
10. Gaynazarova, G.A. (2023). CHARACTERISTICS OF CHILD VIOLENCE AND ITS NEGATIVE CONSEQUENCES. Лучшие интеллектуальные исследования, 8(1), 32-35.
11. Gaynazarova, G.A., & Shonasirova, Z.Y. (2023). МАКТАБГАЧА ТА‘ЛИМ ТИЗИМИГА HORIIYIY TAJRIBALARNI QO‘LLASHNING ZARURATI. Science and innovation, 2(Special Issue 5), 721-724.